GRAMMATIK TUSHUNCHALARNING TOPSHIRIQLARDA BERILISHI ORQALI YOZMA NUTQINI O‘STIRISH

Masharipova N.R.
TAFU Pedagogika kafedrasi
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamonaviy ta’limda rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalari hamda metodlaridan ham foylanmoq keraligi, bugungi kun o‘quvchisi zamon bilan hamnafas holda axborot texnologiyalari bilan yaxshigina xabardorligini hisobga olgan holda dars jarayonida ham ta’limning turli yangi ko‘rinishlarini qo‘llash, an’anaviy va noan’anaviy darslarni aralash holda moslashtirish, zamonaviy metodlardan foydalanish zarur ekanligi kabi masalalarga bag‘ishlanadi.
Kalit so‘zlar: grammatik termin, grmmatisk tushuncha, grammatik qoida, yozma nutq, noan’anaviy topshiriqlar, nutq o‘stirish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabida ona tili o‘qitish o‘quvchilarga dasturda belgilab berilgan doiradagi bilimlar beradiki, shu bilimlar asosida ularning og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, fikrlashni o‘stirish imkoniyatlari mavjud. Hozirgi kunda yaratilayotgan “Yangi avlod” darsliklarida katta e’tibor o‘quvchilarning nutq o‘stirishiga qaratilgandir. Amaldagi hali yangidan nashar qilinmagan 5, 8, 9, 11-sinf darsliklarni ham qaytadan ko‘rib chiqish zarur. Bizga ma’lumki, yangi darsliklarda berilayotgan grammatik tushunchalar avvalgi darsliklarga nisbatan sodda hamda tushunarli tarzda o‘z ifodasini topmoqda. Avvalgi eski darsliklar grammatikaga oid bilimlar sinflar kesimida ajratilgan holatda berilgan bo‘lsa, yangi avlod darsliklarida esa grammatik tushunchalar har bir sinfda ajratilmagan holatda berilib borilmoqda. Masalan, eski 6-sinf darsligida faqat so‘z turkumlariga oid grammatik termin va qoidalar berilar edi, endi bo‘lsa 6-sinf yangi darslikda ona tiliga oid barcha termin va qoidalar berilib boriladi va bu boshqa sinflarda ham xuddi shu tarzda berilib boriladi, natijada tilga oid bilimlar har bir sinfda takrorlanib, mustahkamlanib boriladi. Amaldagi 8-sinf ona tili darsligida asosan sintaksis bo‘limi o‘rin olgan bo‘lib, berilgan mashq va topshiriqlar o‘quvchilarning nutqini o‘stirishga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan, bundan tashqari mumtoz matn va lug‘atlar ustida ishlash ham o‘quvchilarga murakkablik qilmoqda, bazan bu matnlar fan o‘qituvchisi uchun ham murakkablik qilmoqda. Buni qaytadan ko‘rib chiqish va nutq o‘stirishga oid topshiriqlar ishlab chiqmoq kerak.

Darslikda berilayotgan grammatik qoida hamda tushunchalarni soddalashtirish va topshiriqlar orqali yanada mustahkamlash lozim. Buning uchun grammatik ta’riflardan grammatik topshiriqlarga, yoki aksincha, grammatik topshiriqlar yechimi orqali grammatik ta’riflarga o‘tishda bog‘liqlik darkor.

- Grammatik terminlarni faollashtirish;
- Til hodisasi asosida grammatik tushuncha va termini anglatish;
- Grammatik terminni eslab qolish;
- Grammatik terming oid ko‘nikma va malakalarni hosil qilish;
- Grammatik termindan qoidalarni eslash uchun ko‘prik sifatida foydalanishga o‘rgatish;
- Yozma nutqni takomillashtirish jarayonida grammatik terminlarni to‘liq faollashtirishga erishish.

Ona tili darslarida olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar so‘zlarni so‘z turkumlari bo‘yicha yetarlicha chuqur tahlil qilmaslik, grammatik tushunchalarning belgilari, xususiyatlarini yetarlicha bilmaslik tufayli grammatik terminlarni chalkashtirishadi. Masalan, kuzga so‘zi kelishik

shaklida qachon? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. O‘quvchi ana shu bir belgiga ko‘ra bu so‘zni ravish turkumiga kiritadi. Yoki men, sen,siz, biz kabi so‘zlarni kim so‘rog‘iga javob bo‘lishi natijasida ot turkumi deb hisoblashadi. Demak, bundan anglashilinadiki, o‘quvchilarga grammatik termin va tushunchalarni to‘g‘ri va tushunarli ravishda o‘rgata olmaslik oqibatida chalkashliklarga yo‘l qo‘yilmoqda.

Hozirgi zamonaviy ta’limda rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalari hamda metodlaridan ham foylanmoq kerak. Chunki bugungi kun o‘quvchisi zamon bilan hamnafas holda axborot texnologiyalari bilan yaxshigina xabardordir. Shunday ekan dars jarayonida ham ta’limning turli yangi ko‘rinishlarini qo‘llash, hamda an’anaviy va noan’anaviy darslarni aralash holda moslashtirish, zamonaviy metodlardan foydalanish darkor, deb o‘ylayman. Chunki rivojlanlan davlatlar bilan tajriba almashlash natijasida ta’limga yangicha shakl va usullarni olib kirgan bo‘lardik. U davlatlar mana shu bosqichlardan o‘tgan va ta’limda yuqori sifatga erishgan, ta’lim sohasi rivojlangan. Biz ham o‘zimizning eski metodikamiz hamda xorijiy tajribalarni hamohang tarzda moslashtirsak, hozirgi kun o‘quvchisini dars jarayoniga qiziqtira olardik va bu albatta kundan kunga yangidan yangi usullarni kashf etishga sabab bo‘ladi va ta’lim sifatiga ham ta’sir qiladi.

Respublikamizda har bir sohani rivojlantirishda xorij tajribasidan unumli foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. Xususan, ta’lim tizimini ham takomillashtirishda ilg‘or davlatlar tajribasini, ulardagi o‘qitish metodikasining ijobiy jihatlarini o‘rganib milliy metodikamizga tatbiq qilish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida ham xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish kabi bir qator vazifalar belgilab qo‘yilgan. Milliy metodikani rivojlantirishda ham xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda, ulardagi o‘qitishning samarali usullarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda ona tilini o‘qitish tizimini takomillashtirish, o‘qitishning yangi usullarini joriy etish, rivojlangan davlatlardagi til ta’limining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan holda ijobiy tomonlarini amaliyotda qo‘llash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xorijda til ta’limining o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, darsliklarda, asosan, kontekst bilan ishlashga alohida ahamiyat berilishini kuzatishimiz mumkin. Bizning “Ona tili” darsliklarimiz va “Turk tili” darsliklarining asosiy farqli jihatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, grammatik bilimlarning berilishi bizning ona tilini o‘qitish uslubimizdan tubdan farq qiladi. “Turk tili” darsliklarida nazariy qoidalar juda kam, lingvistik kompetensiya asosan matnlar, nutqiy vaziyatlar, mashqlar yordamida shakllantiriladi. Asosiy e’tibor og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishga qaratilganligi sababli grammatik qoidalarga katta o‘rin ajratilmagan, o‘quvchi mashqlarni bajarish davomida lingvistik bilimlarni egallashi mumkin. “Turk tili” darsliklarida o‘quvchi tilshunoslikning barcha bo‘limlari bilan tanishtirilmaydi, o‘quvchi uchun zarur bo‘lgan bilimlargina berib boriladi. O‘quvchilar 5-sinfdan 12-sinfga qadar tinish belgilarning qo‘llanishi, iboralar, nutqda so‘zlarni o‘rinli qo‘llash, so‘z turkumlari gap bo‘laklari, to‘g‘ri yozish qoidalari va boshqa lingvistik ko‘nikmalarni egallab boradilar.

8-sinf “Ona tili” darsligi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘tilganlarni takrorlash.
2. Ijodiy matn. Insho va uning turlari.
3. Sintaksis, ohang va tinish belgilari.
4. Gap.
5. Soda gap sintaksisi.

6. Ikkinchi darajali bo‘laklar.
7. Mustahkamlash darslari.
8. Uyushiq va ajratilgan bo‘lakli gaplar. Gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo‘laklar.

Darslikda mavzular, asosan, bir xil usulda yoritiladi. Mavzuga oid grammatik qoida va mustahkamlovchi mashq va topshiriqlar beriladi. Mashq va topshiriqlarning aksariyati matndan yulib olingan alohida gaplar asosida tuzilgan. Yaxlit, tugal mazmundagi matnlarga asoslangan topshiriqlar juda kam. degan fikrdan yiroqmiz. Bilamizki, darsliklar ham aynan shu soha mutaxassislari, tilshunos va metodist olimlar tomonidan ishlab chiqiladi. Ulardagi barcha ma’lumotlar ilmiy asoslangan bo‘lib, o‘quvchi bilishi lozim bo‘lgan zaruriy nazariy ma’lumotlar o‘rin olgan. Darsliklardagi grammatik qonuniyatlarni o‘rgatish ona tili ta’limida pedagogik mahoratni talab etadi. L.R.Raupova[1] o‘zbek adabiy tili mazmunida tlshunoslikning ilmiy nazariy asoslarini o‘rgatish nazarda tutilishini, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ta’kidlaydi. Faqat mana shu nazariy qismni o‘quvchiga yetkazib berish usulini, o‘qitishga oid yondashuvni biroz o‘zgartirish lozim. O‘quvchi grammatik qoidani yodlab olmasdan, o‘zi mustaqil ravishda “kashf etishi”ga erishish lozim. Buning uchun esa lingvistik bilimni kontekstda berishga, darsliklarda nazariy bilimlarni muayyan mavzularga bog‘lagan holda tushuntirishga, iloji boricha mazmuniy tugalikka ega matnlar bilan ishlashga e’tibor qaratish lozim. Ana shunda ona tili darslarimiz yanada samarali va qiziqarliroq o‘tadi.

Berilgan ma’lumotlarni o‘qing. Ma’lumotlar asosida 80-120 ta so‘zdan iborat matn yozing.

- Kompaniya nomi – “Apple”
- 2007-yil 9-yanvardan – “Apple Inc”
- Tashkil topgan kuni – 1976-yil 1-aprel
- Asoschilari – Stiven Pol Jobs, Stiven Gari Voznyak, Ronald Gerald Ueyn
- Daromadi – daqiqasiga 300.000$
- Xodimlari soni – 80.000dan ortiq
- Mahsulotni yetkazib berish – havo orqali
- Kunlik iPhone sotuvi – 340.000 dona
- Ta’qiqlangan – ishlab chiqarilgan mahsulotlar yonida chekish
- Xodimlarni rag‘batlantirish – bepul iPhone
- Kompaniya tarixidagi katta inqiroz – 1997-yil
- Inqirozdan chiqish – Bil Geytsning 150mln dollar sarmoyasi

Ushbu topshiriq inshoga nisbatan o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otdi va darsga qiziqmaydigan ba’zi bir qo‘shtirnoq ichidagi o‘quvchilar ham topshiriqqa qiziqib, bajarib ketishdi. Baholashda ham orfografikka oid kamchilikka emas, balki bu darsda fikr izchilligiga e‘tibor qaratildi va fikrlarning ifodalanishiga ko‘ra baholandi. Endi boshqa bir nazorat ishida birinchi plan orfografik qoidalarga e’tibor qaratildi:

Zakovat savoli: O‘zbek to‘ylarida /albatta/ *sunray* ovozi yangraydi. *Xar* bir o‘zbek bu kuydan rohatlanadi. Sunnaychi ham ko‘zlarini yumib, huzur *qilip* chaladi. Birinchidan/ o‘zi maza qiladi, ikkinchidan/ muhlislari ham, xullas eshituvchini ham mast qiladi.Lekin bir *sunnaychi* borki/ *uni* ko‘zi doimo ochiq *turushi* kerak. Umuman olganda/ hissiyotga berilmay chalishi kerak. SAVOL: Nega bu sunnaychi hissiyotga berilmay chaladi/

Yuqoridagi nazorat topshirig‘ida orfografik xatolarni topish va ularni to‘g‘rilash, kerakli tinish belgilarini qo‘yish hisoblanadi. Bu orqali o‘quvchi xatolarni tuzatish vositasida so‘zlarning to‘g‘ri

[1] L.Raupova O‘zbek struktural tilshunosligi asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: “Innovatsiya-ziyo”, 2019.

yozilishi, qo‘shimchalarning qo‘llanilishi, tinish belgilarining ishlatilishi kabi bir qator to‘g‘ri yozish ko‘nikmasi shakllanadi va bu xatolarga yo‘l qo‘ymaydi. Topshiriq ham qiziqarli, chunki unda zakovat savoli aks etgan, bu esa o‘quvchini fikrlashga ham undaydi. Bu kabi topshiriqlar o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirishda katta ahamiyat kasb etadi, bu esa, albatta, tajribada sinaldi hamda yaxshi natijalarni ko‘rsata oldi.